



TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA BOJXONA XIZMATLARINING IQTISODIY AHAMIYATI

Ismatullayeva Shoir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-8717-3558,

dronzakai@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda savdo oqimlari kengayib, ta'minot-logistika zanjirlari murakkablashayotgan sharoitda bojxona xizmatlarining iqtisodiy ahamiyati hamda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi roli tahlil qilinadi. Dolzarblik rasmiylashtirish tezligi, shaffoflik va xavfsizlik talablari kuchayishi, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda raqamli yechimlarni keng joriy etish ehtiyoji bilan izohlanadi. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar sharhi, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va rasmiy statistika asosidagi deskriptiv-dinamik qiyoslashdan iborat. Natijalar import-eksport tarkibida jamlanish va xatarlarning ortishini ko'rsatib, riskka asoslangan nazorat, avtomatlashtirish va "inson omili" ni kamaytirish bo'yicha yo'nalishlarni asoslaydi. Muallif bojxona organini strategik savdo infratuzilmasi sifatida talqin etib, amaliy tavsiyalar beradi. Tadqiqotchining ilmiy hissasi sifatida bojxona xizmatining tashqi savdoni soddalashtirishdagi mexanizmlari tizimlashtirilib, ko'rsatkichlari va amaliy islohot yo'nalishlari takomillashtirish yo'nalishlarini taklif etgan.

Kalit sozlar: tashqi savdo aylanmasi, bojxona xizmati, eksport, import, tovar, risklarni boshqarish.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ТАМОЖЕННЫХ УСЛУГ ВО ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Исмагуллаева Шоира

Ташкентский государственный

Экономический университет

Аннотация: В данной статье анализируется экономическая значимость таможенных услуг и их роль в поддержке предпринимательства в Узбекистане в условиях расширения торговых потоков и усложнения цепочек поставок и логистики. Актуальность исследования обусловлена усилением требований к скорости таможенного оформления, прозрачности и безопасности, необходимостью совершенствования системы управления рисками, а также широкого внедрения цифровых решений. Методическая база включает обзор научной литературы по теме, анализ нормативно-правовых актов и дескриптивно-динамическое сопоставление на основе официальной статистики. Полученные результаты показывают рост концентрации в структуре импорта и экспорта и усиление рисков, что обосновывает направления развития риск-ориентированного контроля, автоматизации и снижения «человеческого фактора». Автор рассматривает таможенные органы как стратегическую торговую инфраструктуру и формулирует практические рекомендации. Научный вклад исследования заключается в систематизации механизмов упрощения внешней торговли через таможенные услуги, определении ключевых индикаторов и предложении направлений совершенствования практических реформ.

Ключевые слова: внешнеторговый оборот, таможенная служба, экспорт, импорт, товар, управление рисками.

THE ECONOMIC SIGNIFICANCE OF CUSTOMS SERVICES IN FOREIGN ECONOMIC ACTIVITY

Ismatullayeva Shoirra

Tashkent State University of Economics

Abstract: This article analyzes the economic significance of customs services and their role in supporting entrepreneurship in Uzbekistan amid expanding trade flows and increasingly complex supply and logistics chains. The relevance of the study is explained by growing demands for faster customs clearance, greater transparency and security, the need to improve the risk management system, and the wider adoption of digital solutions. The research approach combines a review of relevant academic literature, an analysis of regulatory and legal documents, and descriptive–dynamic comparative analysis based on official statistics. The results indicate rising concentration in the structure of imports and exports and an increase in associated risks, thereby substantiating policy directions focused on risk-based control, automation, and the reduction of the “human factor.” The author interprets customs authorities as a strategic trade infrastructure and provides practical recommendations. The study’s scientific contribution lies in systematizing the mechanisms through which customs services facilitate trade, identifying key indicators, and proposing areas for improving practical reform measures.

Keywords: foreign trade turnover, customs service, export, import, goods, risk management.

Kirish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni o'rganib chiqishda bojxona xizmatlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bojxona xizmati O'zbekistonda nafaqat fiskal va nazorat vazifasini, balki tashqi iqtisodiy faoliyatni soddalashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va davlat chegarasidan o'tayotgan tovarlar harakatini muvofiqlashtirish vazifasini ham bajaradi. Moliya vazirligining byudjet ijrosi hisobotlari ma'lumotlariga ko'ra bojxona organi tomonida undirilgan to'lovlarining davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 2023-yilda 25,2% ni, 2024-yil 22,9% ni tashkil qilgan. Bu o'z navbatida bojxona sohasida olib borilayotgan islohotlar samarsi hisoblanadi. Shu o'rinda Davlatimiz rahbari tomonidan bojxona xizmatlarini yanada takomillashtirish borasida qabul qilingan quyidagi hujjatlar ham alohida o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025 yildagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” dagi 57-son Farmoniga muvofiq, davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha 2030-yilgacha LPI indeksida bojxona rasmiylashtiruv samaradorligi ko'rsatkichini kamida 55-pog'onaga yetkazish, 2026-yilgacha deklaratsiyalarni inson omilisiz rasmiylashtirish ulushini 2 barobarga oshirish, 2028-yilgacha bojxona ko'rigini 21 foizdan 15 foizgacha kamaytirish hamda 2030-yilgacha sun'iy intellekt elementlari asosida xavfni boshqarish tizimi samaradorligini 2 barobarga oshirish vazifalari belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.03.2025 yildagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida” 122-sonli Qarorida 2025-yilda bojxona sohasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, bojxona organlarining axborot tizimlarini takomillashtirish hamda ularning samaradorligini oshirish, shuningdek, bojxona organlari tashkiliy tuzilmalarini optimallashtirish belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga qadar eksport hajmini 30 mlrd AQSh dollariga yetkazish bilan eksport salohiyatini oshirish ko'zda tutilgan. Maqsadga erishish doirasida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksportini 3,3 baravarga ko'paytirish, GSP+ orqali Yevropa davlatlariga eksportni kengaytirish, chegara

hududlarda erkin savdo zonalarini tashkil etish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash vazifalari belgilangan.

Yuqoridagi vazifalar va ustuvor yo'nalishlarning amaliy natijadorligi, avvalo, mamlakatning tashqi savdo aylanmasi (TSA) dinamikasi hamda uning tarkibiy o'zgarishlarida aks etadi. TSA hajmining ortishi, eksport va import geografiyasining kengayishi, hamkor davlatlar bilan savdo oqimlarining murakkablashuvi bojxona ma'muriyatchiligiga qo'yiladigan talablarni keskin oshiradi. Chunki tovarlar harakati hajmi ortgan sari bojxona rasmiylashtiruv tezligi, shaffofligi va xavflarni aniqlash sifati (risklarni boshqarish) savdo jarayonlarining uzluksizligini ta'minlovchi muhim omilga aylanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bojxona xizmatlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishdagi o'rni bo'yicha adabiyotlar sharhi mazkur yo'nalishda shakllangan ilmiy-amaliy qarashlarni tizimli umumlashtirishga qaratilib, bojxona ma'muriyatchiligining fiskal va nazorat funksiyalari bilan bir qatorda savdoni soddalashtirish, raqamlashtirish, risklarni boshqarish hamda biznes uchun tranzaksion xarajatlarni kamaytirishdagi ta'sirini yoritishga xizmat qiladi. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar va me'yoriy hujjatlarda ilgari surilgan yondashuvlar asosida O'zbekiston sharoitida bojxona xizmatlarini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari, tashqi savdo aylanmasi dinamikasi bilan o'zaro bog'liqligi hamda mavjud ilmiy qarashlar doirasida takomillashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

Xo'jaev (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotda transport-logistika sohasida raqamlashtirish jarayoni jadal rivojlanayotganini va raqamli texnologiyalarni joriy etish biznes jarayonlari samaradorligini oshirib, xarajatlarni qisqartirishi hamda xizmat sifatini yaxshilashini ta'kidlaydi. Buning natijasida eksport hajmini oshishi va milliy iqtisodiyotga ko'proq daromat keltirishi isbotlangan. Ushbu yondashuv bojxona ma'muriyatchiligi va tashqi savdo aylanmasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bojxonada raqamli kuzatuv va ma'lumot almashinuvi, shaffoflikni kuchaytirish, risklarni boshqarish va rasmiylashtirishni tezlashtirish orqali eksport-importning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Zoxidov (2023) olib borgan tadqiqotida eksport va importni soliqlar orqali rag'batlantirish mexanizmini o'rganib chiqqan. Natijada, tashqi iqtisodiy faoliyatni soliqlar orqali qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, tovarlarni portlar va chegaralarda rasmiylashtirishni tezlashtirish uchun bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, mazkur jarayonlarida qog'ozbozlikni qisqartirish va samaradorlikni oshirish uchun elektron bojxona tizimini takomillashtirishni muhim ahamiyat kasb etishini aniqlagan.

Mavzuga doir xalqaro tadqiqotlar savdoni soddalashtirish choralari savdo natijalarini sezilarli yaxshilashini ko'rsatadi. Xususan, Afrika mamlakatlari misolida o'tkazilgan empirik tahlil natijalariga ko'ra, savdoni osonlashtirish ko'rsatkichlari yaxshilangani sari savdo oqimlari ortadi va soddalashtirish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ta'sir shunchalik kuchli bo'ladi (Sakyi va Afesorgbor, 2019). Bu yondashuv bojxona ma'muriyatchiligini "faqat nazorat" sifatida emas, balki savdoni tezlashtiruvchi institutsional omil sifatida ko'rish zarurligini asoslaydi.

Bojxona ma'muriyatchiligi jarayonlarining savdoni osonlashtirishga ta'siri bo'yicha amaliy tadqiqotlar ham mazkur yo'nalishni qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, Keniya bo'yicha tadqiqot natijalariga ko'ra, bojxona tartib-taomillari doirasida deklaratsiyalash, hujjatlashtirish va tovarlarni tekshirish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish savdoni osonlashtirishga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayonlar sifatli tashkil etilganda savdo yengillashishi amaliy jihatdan isbotlab berilgan. (Wanjao, 2022). Bu xulosalar bojxona xizmatlarining tashqi savdoda tranzaksion xarajatlarni (vaqt, hujjat, muvofiqlashtirish) pasaytirishdagi rolini kuchaytiradi.

Shuningdek, Ruanda misolida olib borilgan tadqiqotlar importyor va yuklarni oldindan habardor qilish natijasida aloqa kanallari qisqargani, chegara rasmiylashtiruv va yukni rasmiylashtirish xarajatlari kamaygani ta'kidlanadi (Oswald, 2022). Bundan tashqari, eksport

jarayonlarini soddalashtirilishi tadbirkorlarning ortiqcha qatnovi va xarajatlarini kamaytirishi qayd etiladi. Bu natijalar, ayniqsa, savdo aylanmasi hajmi va tarkibi o'sib borayotgan sharoitda bojxona jarayonlarining "tezlik-xavfsizlik" muvozanatini topishi naqadar muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot bojxona xizmatlarining tashqi savdo jarayonlaridagi iqtisodiy ahamiyati va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashdagi rolini baholashga qaratilgan bo'lib, metodologik yondashuv amaliy natijaga yo'naltirilgan hamda tizimli tahlil tamoyillariga asoslandi. Tadqiqot dizayni adabiyotlar va rasmiy hujjatlar tahliliga asoslangan tadqiqot ko'rinishida shakllantirilib, sifat va miqdoriy usullar uyg'unligida amalga oshirildi. Tadqiqotda axborot olishning asosiy manbalari sifatida ikkilamchi ma'lumotlar tanlandi: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tashqi savdo ko'rsatkichlari, Moliya vazirligi byudjet ijrosi hisobotlari, Bojxona qo'mitasining rasmiy axborotlari va tahliliy ma'lumotlari, shuningdek, so'nggi yillardagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Ilmiy manbalarni tanlashda funksional yo'naltirilgan bibliografik qidiruv qo'llanildi, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar saralandi. Empirik tahlil bosqichida rasmiy statistika ma'lumotlari asosida deskriptiv-statistik va dinamik qiyosiy tahlil bajarildi. Shuningdek, savdo oqimlaridagi konsentratsiya va xatarlar kuchayishi haqidagi xulosalarni asoslash uchun tarkibiy tahlil va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari uchun bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish, raqamlashtirish va ko'rsatilayotgan imtiyozlardan samarali foydalanish natijasida O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo aylanmasi (TSA) hajmi izchil oshib bormoqda.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdosining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2015–2024 yillar, mlrd AQSh dollari).

Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Tashqi savdo aylanmasi	24,9	24,2	26,6	33,4	41,8	36,3	42,2	50,5	63,5	67,2
Eksport	12,5	12,1	12,6	14,0	17,5	15,1	16,7	19,7	24,9	27,3
Import	12,4	12,1	14,0	19,4	24,3	21,2	25,5	30,8	38,7	40,0
Saldo	0,1	0,0	-1,5	-5,4	-6,8	-6,1	-8,8	-11,0	-13,8	-12,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (uzstat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi 1-jadvalda 2015–2024 yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi dinamikasi ko'rsatilgan. 2015 yilda TSA 24,9 mlrd dollardan 2024 yilda 67,2 mlrd dollarga yetib, qariyb 2,7 baravar oshgan. O'sish ayniqsa 2018–2019 yillarda tezlashgan (33,4 dan 41,8 mlrd), 2020 yilda esa global pandemiya ta'sirida TSA 36,3 mlrd dollargacha qisqargan. 2021 yildan boshlab savdo hajmlari tiklanib, 2022–2024 yillarda o'sish jadallashgan.

Eksport dinamikasi 2015 yilda 12,5 mlrd dollardan 2024 yilda 27,3 mlrd dollarga chiqib, tahminan 2,2 baravar oshgan. Biroq import mazkur yillarda yanada tezroq o'sgan tahminan, 3,2 baravarga ko'tarilgan (12,4 mlrd dollardan 40,0 mlrd dollarga). Bu esa o'z navbatida tashqi savdo balansi (saldo)ning 2017 yildan boshlab manfiylashishiga olib kelgan.

Mazkur tendensiyalar bojxona ma'muriyatchiligi uchun ham dolzarbdir: tashqi savdo aylanmasi kengaygani sari bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarining tezkorligi va shaffofligini ta'minlash, raqamli yechimlarni keng joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda inson omiliga bog'liqlikni kamaytirish tadbirkorlar uchun vaqt va xarajatlarni qisqartiradi. Natijada savdo operatsiyalarining uzluksizligi kuchayib, TSA hajmining barqaror o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, keyingi jadvalda (2-jadval) import tarkibi tahlil qilinib, importning qaysi yo'nalishlari TSAdagi manfiy saldo shakllanishiga ko'proq ta'sir qilayotgani aniqlanadi.

2-jadval

**O'zbekiston Respublikasida import tarkibi dinamikasi
(2015–2024 yy., %).**

№	Klassifikator	Yillar									
		2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	37,2	39,2	33,8	39,5	39,4	37,6	32,4	31,5	38,6	33,9
2	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	16,1	15,4	17,4	17,8	17,1	16,9	18,5	18,7	16,4	15,1
3	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	14,2	14,9	12,7	10,9	11,1	13,6	14,6	14,2	12,6	11,7
4	Xizmatlar	8,0	7,0	14,8	11,0	10,0	5,8	6,9	8,3	8,0	11,7
5	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,1	5,1	5,6	4,5	3,9	5,2	6,1	5,8	6,8	9,9
6	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,0	9,9	7,8	6,8	6,6	8,8	9,8	11,0	9,0	9,2
7	Turli xil tayyor buyumlar	3,7	3,9	4,1	4,0	6,2	6,2	5,1	4,3	3,9	3,7
8	Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg'idan tashqari	1,5	2,3	2,4	4,1	4,2	4,1	4,5	4,2	2,9	3,0
9	Hayvonlar va usimliklar moylari (yoglari), yoglar va mumlar	1,8	1,9	1,2	1,1	1,2	1,4	1,6	1,3	1,1	0,9
10	Ichimliklar va tamaki	0,4	0,4	0,3	0,1	0,2	0,2	0,4	0,5	0,5	0,6
11	Boshqa tovarlar	0,0	0,0	0,0	0,1	0,2	0,2	0,0	0,2	0,2	0,1
12	Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (uzstat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2024-yilda import tarkibida yetakchi guruh "Mashinalar va transport asbob-uskunolari" bo'lib, uning ulushi 33,9% ni tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda "Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari" (15,1%), shuningdek "Kimyoviy mahsulotlar" (11,7%) va "Xizmatlar" (11,7%) turadi. Natijada 2024-yilda: top-3 guruh ulushi: 60,7%; top-4 guruh

ulushi: 72,4% bo'lgan. Bu import tarkibida yirik guruhlar ulushi yuqori ekanini, ya'ni importning ma'lum segmentlarda konsentratsiyalashganini bildiradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida sezilarli tarkibiy va dinamik o'zgarishlar kuzatilmoqda. Mazkur jarayonlar ichki iqtisodiy islohotlar, me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashuvi hamda global bozor holati va logistika zanjirlaridagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, avvalo TSAning eksport qismi tarkibi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqish, keyingi bosqichda esa import tarkibi orqali savdo muvozanati (saldo) shakllanishining asosiy sabablarini aniqlash ilmiy jihatdan muhim hisoblanadi.

Eksport hajmi va tarkibining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin. Ichki omillar qatoriga eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayishi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari sonining ortishi, valyuta munosabatlarining liberallashtirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish va raqamlashtirish, logistika xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan choralar, shuningdek, eksportchi korxonalar uchun moliyaviy va tashkiliy ko'mak tizimining takomillashuvi kiradi. Tashqi omillar esa jahon bozorlarida talabning o'zgarishi, yangi bozor segmentlarini o'zlashtirish, xalqaro moliya institutlari resurslari va imtiyozli moliyalashtirish instrumentlaridan foydalanish, marketing va brendlash faoliyatini kuchaytirish hamda xalqaro ko'rgazma-yarmarkalarda ishtirok etish orqali mahsulotni ilgari surish kabi yo'nalishlar bilan izohlanadi.

Biroq eksport salohiyatini oshirish yo'lida hali ham qator tizimli cheklovlar mavjud. Xususan, xalqaro standart va sertifikatlarini olish tartib-taomillarining murakkabligi, transport va chegaraoldi infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani, logistika xarajatlarining yuqoriligi hamda tashqi bozorlarda barqaror "o'rin" egallash uchun yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish zarurati eksport tarkibini chuqurroq tahlil qilishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, keyingi jadvalda eksport tarkibining yillar bo'yicha o'zgarishi ko'rsatiladi va asosiy tendensiyalar tahlil qilinadi. (3-jadval)

Shu bilan birga, ichki bozor ehtiyojlarini qondirish va real sektor tarmoqlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash maqsadida import oqimlari ham muhim o'rin tutadi. Import tarkibida texnologik uskunalar, oraliq tovarlar, xomashyo va energiya resurslari ulushining yuqoriligi ko'pincha ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va investitsion faollik bilan bog'liq bo'lsa, ayrim yo'nalishlarda iste'mol importi ichki bozor talabi bilan izohlanadi. Bunday holat TSA ko'rsatkichlariga, ayniqsa savdo balansiga bevosita ta'sir ko'rsatishi sababli, import tarkibini ham alohida tahlil qilish zarur.

Natijada, TSA dinamikasini to'liq baholash uchun eksport va importning nafaqat hajm ko'rsatkichlari, balki ularning tarkibiy tuzilmasi, ya'ni qaysi tovar guruhlari ulushi ortayotgani yoki qisqarayotgani, shuningdek, bu jarayonlarning bojxona ma'muriyatchiligi bilan bog'liq jihatlarini (rasmiylashtirish tezligi, raqamlashtirish, risklarni boshqarish, "inson omili"ni kamaytirish) ham hisobga olish lozim. Aynan shu yondashuv keyingi jadvallar asosida keltiriladigan tahlilning ilmiy mantiqini ta'minlaydi.

2015–2024 yillarda eksport tarkibida yetakchi ulushlar asosan xizmatlar, "boshqa tovarlar" hamda material turiga ko'ra klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hissasiga to'g'ri kelgan. 2024 yil yakuniga ko'ra ushbu uch yo'nalish mos ravishda 27,8%, 27,7% va 15,3%ni tashkil etib, top-3 ulush 70,8% ga teng bo'lgan. Bu eksport tarkibida yirik segmentlar ulushi yuqori ekanini, shu bilan birga tarkibning xizmatlar va qayta ishlash bilan bog'liq mahsulotlar tomonga siljiyotganini anglatadi. Eksportni rivojlantirish yo'nalishida bojxona organlari tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi.

3-jadval

**O'zbekiston Respublikasida eksport tarkibi dinamikasi
(2015–2024 yy., %).**

Nº	Klassifikator	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Xizmatlar	24,5	25,8	19,7	21,9	19,7	13,3	15,5	22,6	22,7	27,8
2	Boshqa tovarlar	15,4	23,2	26	21	28,5	38,5	25,8	20,9	32,9	27,7
3	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,9	14,2	17,6	17,2	15,8	19,2	26	22,2	16,3	15,3
4	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9,9	5,3	6,5	7,4	8,2	8,8	8,2	8,3	7,1	8
5	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,8	6,8	6,9	6,3	4,8	5,4	6,8	6,6	5,3	6,2
6	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	21,5	14,2	12,8	19,1	14,5	4,4	5,5	6,2	3,8	4,8
7	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1,1	1,7	2,8	1,5	2,4	2,9	4,2	4,9	5,2	4,4
8	Turli xil tayyor buyumlar	1,7	2	2,5	2,4	2,5	4,1	4,7	5,6	4,8	4,1
9	Nooziq-ovqat xomashyo, yokilg'idan tashqari	7,1	6,5	5	3,1	3,4	3	3,1	2	1,3	1,2
10	Ichimliklar va tamaki	0,2	0,1	0,2	0,2	0,2	0,2	0,2	0,6	0,5	0,5
11	Hayvonlar va usimliklar moylari (yog'lari), yoglar va mumlar	0	0	0	0	0,1	0,2	0	0,1	0,1	0,2
	Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (uzstat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Xususan, 2025-yil 7–9-oktabr kunlari Respublikada ilk bor “Uzbek Import Fair 2025” I-xalqaro ko'rgazmasi tashkil etildi. Tadbir O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamkorligida o'tkazilib, uning asosiy mavzusi “Mahalliy kontentni oshirish va importni optimallashtirish” etib belgilandi.

Tadbirning amaliy maqsadi import hajmi yuqori, lekin mamlakat ichida ishlab chiqarish salohiyati mavjud bo'lgan tovarlar bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilarga “bozor signali”ni aniq ko'rsatish, ya'ni qaysi mahsulotlarni mahalliyashtirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini tushunarli formatda namoyish etishdan iborat. Bojxona qo'mitasining rasmiy axborotida ko'rgazma mahalliy ishlab chiqaruvchilarga bunday tovarlarni ko'rish, o'rganish va amaliy xulosa chiqarish imkonini berishi ta'kidlanadi.

Ko'rgazmada 3 ming turdagi (importi yuqori va mahalliy ishlab chiqarish potentsiali mavjud) tovarlar namoyishga qo'yilgani, mahsulotlar 24 ta tematik blok (oziq-ovqat, farmatsevtika, kimyo, to'qimachilik, mebel, charm sanoati, avtomobilsozlik va transport ehtiyot qismlari) bo'yicha guruhlangani qayd etilgan.

Mazkur ko'rgazma TSA tarkibida import bosimini yumshatish va manfiy saldo sharoitida import o'rnini bosish (lokalizatsiya) siyosatini bozor mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashga qaratilgan instrument sifatida talqin qilinadi: ya'ni "qaysi tovarlar ko'p import qilinmoqda" degan ma'lumotni ishlab chiqaruvchiga aniq yetkazish, hamkorlar va texnologiyalar bilan bog'lash, natijada ichki ishlab chiqarish zanjirlarini kengaytirish.

Tashqi savdo hajmlarining o'sishi va tarkibiy siljishlar bojxona ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish zaruratini kuchaytiradi. Shu jihatdan, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralari jadallashuvi savdo rejimini shaffoflashtirish, tartib-taomillarni soddalashtirish va texnik talablarni uyg'unlashtirish kabi yo'nalishlarda islohotlarni tezlashtiruvchi omil sifatida qaralishi mumkin. Demak, TSA dinamikasini baholashda bojxona mexanizmlarini modernizatsiya qilish va xalqaro savdo qoidalariga moslashish jarayonlari ham muhim jihat bo'lib xizmat qiladi.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasining MDH va boshqa davlatlar bilan tashqi savdosi hajmining o'zgarishi (mlrd.AQSh dollari).


Ko'rsatkichlar	Yillar									
	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
TSA	24,9	24,2	26,6	33,4	41,8	36,3	42,2	50,0	63,5	67,2
MDH	9,5	8,4	9,1	12,1	14,5	11,8	15,9	19,2	20,9	23,1
Boshqa Davlatlar bilan	15,4	15,8	17,5	21,3	27,3	24,4	26,3	30,8	42,6	44,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (uzstat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2015–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida MDH mamlakatlari ulushi ma'lum darajada o'zgarib borgan. Jumladan, 2015-yilda MDH bilan savdo hajmi 9,5 mlrd AQSh dollari bo'lib, umumiy TSA (24,9 mlrd) tarkibida taxminan 38,2% ni tashkil etgan. 2024 yilga kelib MDH bilan savdo 23,1 mlrd AQSh dollariga yetgan bo'lsa-da, umumiy TSA ham keskin oshgani sababli MDH ulushi nisbatan 34,4% atrofida shakllangan.

Shu bilan birga, MDHdan tashqari "boshqa davlatlar" bilan savdo hajmi 2015-yildagi 15,4 mlrd AQSh dollaridan 2024-yilda 44,1 mlrd AQSh dollariga ko'tarilib, umumiy tashqi savdo tarkibida yetakchi yo'nalish bo'lib qolmoqda. Bu holat O'zbekiston tashqi savdo hamkorligi geografiyasi kengayayotgani, savdo oqimlari diversifikatsiyalanayotgani hamda MDH bilan aloqalar saqlanib qolgan holda, boshqa mintaqalar bilan savdo hajmi yanada tezroq o'sayotganini ko'rsatadi.

Quyidagi 1-rasmda 2015–2024-yillarda O'zbekiston importida yetakchi top-4 hamkor davlatlar bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Unga ko'ra import hajmi va geografiyasida sezilarli kengayish kuzatilganini ko'rishimiz mumkin. Import tarkibida yetakchi o'rinlarni Xitoy va Rossiya egallab kelmoqda. 2024 yil yakunida Xitoydan import 10,32 mlrd, Rossiyadan esa 7,69 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, top-10 importning 64% dan ortig'i aynan shu ikki yo'nalishga to'g'ri kelgan. Import tarkibida yetakchi davlatlarning ulushi ustunlik qilmoqda, ya'ni ta'minot zanjirlari bo'yicha xatarlar (logistika uzilishi, narx tebranishi, cheklovlar) yuzaga kelganda umumiy import oqimlari sezgir bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (uz.stat) ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

1-rasm. O'zbekiston importining asosiy mamlakatlar bo'yicha o'sish dinamikasi (2015–2024-yy.)

Top-3 hamkor (Xitoy, Rossiya va Qozog'iston) ulushining 2024-yilda qariyb 74% atrofida shakllangani ham import geografiyasida yirik hamkorlar roli kuchli ekanini tasdiqlaydi. Koreya Respublikasidan import 2019 yilda 2,52 mlrd dollarga yetgan bo'lsa, 2024 yilda 1,85 mlrd dollarga pasaygan; Qozog'iston yo'nalishida ham 2022-yildagi 3,20 mlrd dollardan keyin 2024-yilda 2,76 mlrd dollarga tushish kuzatiladi. Umuman olganda, rasmda importning asosiy "og'irlik markazi" Xitoy va Rossiya yo'nalishlarida jamlanayotganini, qolgan hamkorlar esa o'rta va kichik segment sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Quyidagi 2-rasmda ko'rsatilgan ma'lumotlar shuni korsatadiki, 2015–2024-yillarda top-4 hamkor davlatlar bo'yicha eksport hajmi umumiy oshib, taxminan 59% ga kengaygan. Eksportning asosiy qismi bir necha yirik hamkorlar hissasiga to'g'ri keladi. 2024 yilda Rossiya (2,95 mlrd), Xitoy (1,80 mlrd) va Qozog'iston (1,25 mlrd) bo'yicha eksport jami 6,0 mlrd dollarga teng bo'lib, top-10 eksportning qariyb 60% ini tashkil etgan. Bu holat eksport oqimlarida "og'irlik markazi"ning 2–3 ta asosiy yo'nalishda jamlanayotganini bildiradi. Biroq 2015-yilda top-3 ulushi yanada yuqori (taxminan 78%) bo'lganini inobatga olsak, keyingi yillarda top-10 doirasida eksport geografiyasi nisbatan diversifikatsiyalashgani ham kuzatiladi. Rossiya yo'nalishi 2015 yildagi 1,23 mlrd dollardan 2024-yilda 2,95 mlrd dollarga yetib, 1,72 mlrd dollarlik eng katta o'sishni ko'rsatgan va 2022–2024 yillarda ayniqsa tezlashgan. Xitoy bo'yicha eksport esa 2015–2024-yillarda umumiy hisobda deyarli barqaror (1,88 dan 1,80) bo'lib, ayrim yillarda o'zgarishlar kuzatiladi. Qozog'iston bo'yicha eksport 2015 yildagi 1,79

mlrddan 2024 yilda 1,25 mlrdgacha pasaygani esa eksport yo'nalishlarida qayta taqsimlanish bo'layotganini anglatadi.



2-rasm. O'zbekiston importining asosiy mamlakatlar bo'yicha o'sish dinamikasi (2015–2024 yy.)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (uz.stat) ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Shu bilan birga, qo'shni va mintaqaviy bozorlar roli ortib borayotgani ko'rinadi: 2024 yilda Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Afg'oniston va Ozarbayjon yo'nalishlari jamlanmasi top-10 eksportning qariyb 62% ini tashkil etgan. Afg'oniston bo'yicha eksportning 0,37 mlrddan 0,94 mlrdgacha o'sishi hamda Tojikiston va Pokiston kabi yo'nalishlarda o'sish trendi eksport geografiyasi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston 2021-yil aprel oyida Yevropa Ittifoqining GSP+ (Generalized Scheme of Preferences Plus) tizimiga qo'shilgan. Bu tizim doirasida O'zbekiston mahsulotlari Yevropa Ittifoqi bozoriga bojxona to'lovlarisiz kirish imkoniyatiga ega bo'lgandi. Fransiya davlatiga amalga oshirilgan eksport hajmining o'sishi Davlatimiz tomonidan tadbirkorlarga yaratilgan qulayliklar natijasida samarasidir.

2024 yil o'rtalaridan ekportni rag'batlantirish maqsadida Bojxona qo'mitasi tomonidan Toshkent viloyatida "Eksport uch qadam" (faqat avto transport turi uchun) tizimi joriy etilgan. Shu vaqtgacha tadbirkorlar tovarlarni eksport qilish jarayonida to'qqiz bosqichdan o'tishgan bo'lsa, endilikda bu jarayon uch bosqichda amalga oshirilib, eksport jarayonini rasmiylashtirishga sarflanadigan vaqt 5 soatdan 1 soatga, bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirishga sarflangan vaqt esa 42 daqiqadan 10 daqiqaga qisqargan.

Mamlakatimizda 2025-yil 1-iyuldan boshlab 86 turdagi tovarlarga eksport bojxona bojlari joriy etildi. Mazkur hujjat bilan eksport tartiblari JST qoidalariga moslashtirildi va avval mavjud bo'lgan ayrim uyushma yig'implari hamda ruxsatnoma talablari bekor qilinadi. Hujjatning eng asosiy jihatlaridan biri bu "qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish"ga qaratilganligidadir. Misol uchun, agar korxona kardolanmagan paxta tolasi (HS 5201)ni xomashyo ko'rinishida eksport qilsa, unga eksport bojxona boji stavkasi 100% qo'llanadi. Lekin, xuddi shu paxta qayta ishlanib trikotaj (masalan, HS 6001 — tukli trikotaj matolar) mahsulotiga aylantirilsa, eksport boji 1% bo'ladi — ya'ni tayyor mahsulot eksporti rag'batlantiriladi.

Yuqorida bayon etilgan holatlardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin: O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo aylanmasining o'sishi hamda uning tarkibiy tuzilmasidagi o'zgarishlar bojxona organlari oldiga nafaqat fiskal tushumlarni ta'minlash, balki tashqi savdo operatsiyalarini tezkor va shaffof rasmiylashtirish, raqamli yechimlarni keng joriy etish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda "inson omili"ni kamaytirish orqali tadbirkorlarning vaqt va xarajatlarini qisqartirish vazifalarini ham qo'yadi. Shu bois, tashqi savdoning hajm va tarkib jihatidan murakkablashib borishi bojxona ma'muriyatchiligini modernizatsiya qilishni, import-eksportning ayrim tovar guruhlarini va cheklangan doiradagi hamkor mamlakatlar kesimida jamlanib qolishi bilan bog'liq xatarlarni kamaytirishga xizmat qiladigan tartib-taomillarni yanada soddalashtirishni hamda eksportni qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Xulosa va takliflar.

Bojxona xizmati tashqi savdo jarayonlarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlaydigan asosiy institutlardan biri bo'lib, uning roli faqat boj to'lovlarini undirish yoki nazorat bilan cheklanmaydi. U savdo operatsiyalarini soddalashtirish, rasmiylashtirishni tezlashtirish, shaffoflikni kuchaytirish hamda tadbirkorlar uchun vaqt va xarajatlarni qisqartirish orqali tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo hajmining kengayishi va tovar oqimlarining murakkablashuvi bojxona ma'muriyatchiligini doimiy modernizatsiya qilishni talab etadi. Bu jarayonda raqamlashtirish, "inson omili"ni kamaytirish, risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish va sun'iy intellektga tayangan yondashuvlarni joriy etish bojxona samaradorligini oshirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, import va eksport tarkibida hamda hamkor mamlakatlar kesimida yuqori ulushga ega mamlakatlar mavjudligi ta'minot zanjiri xatarlarini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli, bojxona organlari tomonidan riskka asoslangan nazoratni to'g'ri yo'lga qo'yish, savdo oqimlarini diversifikatsiyalashni rag'batlantirish va rasmiylashtirish jarayonlarini aniq, tushunarli va tezkor qilish tashqi savdo xavfsizligi hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bojxona tizimi tashqi savdoni rivojlantirishga xizmat qiladigan "strategik infratuzilma" sifatida talqin qilinadi: u qulay biznes muhitini shakllantirish, eksportni rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash, xalqaro savdo qoidalariga moslashuvni jadallashtirish va mamlakatning logistika hamda investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Azael, A. (2022) *Customs matters: strengthening customs administration in a changing world*. Washington, DC: International Monetary Fund.

De Melo, J. (2025) 'Reducing wait times at customs to boost trade: how implementing the Trade Facilitation Agreement can expand trade among AfCFTA countries?', *Journal of African Economies*, 34(2), pp. 265–294.

Farmon (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahsulotlar eksporti tartib-taomillarini takomillashtirish va qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"*, Farmoni PF-47, 14 mart 2025.

Farmon (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"*, Farmoni №57, 25 mart 2025.

Qaror (2025) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"*, Qarori №122, 25 mart 2025.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida", Qarori №500, 24 avgust 2020.

Sakyi, D. (2019) "The effects of trade facilitation on trade performance in Africa", The Journal of African Trade, 6(1-2), pp. 1-15.

Wanjao, L. (2022) Effect of customs administration procedures on trade facilitation in Kenya. Moi University (unpublished thesis/dissertation).

World Customs Organization (2005) SAFE framework of standards to secure and facilitate global trade. Brussels: World Customs Organization.

Xo'jayev.F (2024) O'zbekiston Respublikasida transport xizmati ko'rsatish sohasini raqamlashtirish holati va uning istiqbollari. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari. №4, pp. 40-46.

Zoxidov I (2023) Eksport va importni iqtisodiy o'sishga soliqlar orqali ijobiy ta'sirini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, №II, pp.78-85.